



## BOJXONA TO'LOVLARIDAN QARZDORLIKNING KELIB CHIQUISH SABABLARI VA ULARNING OLDINI OLISH CHORALARI

**Pardayev To'liq Nasirovich**

iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Bojxona qo'mitasi Bojxona instituti

**Mavlonov Bahromali Qodirovich**

Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.18413172>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-yanvar 2026 yil

Ma'qullandi: 27-yanvar 2026 yil

Nashr qilindi: 29-yanvar 2026 yil

### KEY WORDS

*bojxona to'lovlari, fiskal faoliyat, qo'shimcha hisoblangan bojxona to'lovlari, bojxona qiymati, imtiyozlar va preferensiyalar, bojxona auditi.*

### ABSTRACT

*Maqolada bojxona to'lovlaridan qarzdorlikning shakllanish omillari va ularni kamaytirish mexanizmlari tahlil qilingan. Statistik ma'lumotlari asosida qo'shimcha hisoblangan bojxona to'lovlari dinamikasi o'rganilib, bojxona qiymati, imtiyoz va preferensiyalarni noto'g'ri qo'llash qarzdorlikning asosiy manbalari ekanligi aniqlangan. Tadqiqot natijalari asosida bojxona organlari fiskal faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan amaliy takliflar ishlab chiqilgan*

Bugungi kunda bojxona organlari faoliyati nafaqat bojxona qoidabuzarliklarini aniqlash, balki ushbu qonunbuzilishlarning kelib chiqish sabablari va ularning oldini olish mexanizmlarini chuqur tahlil qilishga ham qaratilmoqda. Ayniqsa, bojxona to'lovlaridan qarzdorlikning vujudga kelishi davlat budjeti daromadlarining barqaror shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi bilan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda bojxona tartib-taomillarining soddalashtirilishi, tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlari uchun imtiyoz va preferensiyalarning kengaytirilishi bir tomondan tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, ikkinchi tomondan bojxona to'lovlari bo'yicha qarzdorlik yuzaga kelish xavfini ham oshirmoqda. Mazkur maqolaning maqsadi bojxona to'lovlaridan qarzdorlikning shakllanish omillarini aniqlash, ularning fiskal faoliyatga ta'sirini baholash hamda ushbu muammolarni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

### Adabiyotlar sharhi

Bojxona to'lovlarining fiskal ahamiyati, ularni undirish samaradorligi hamda bojxona to'lovlaridan qarzdorlik muammolari iqtisodiy xavfsizlik va davlat budjeti barqarorligini ta'minlash nuqtayi nazaridan ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Ilmiy adabiyotlarda bojxona to'lovlari davlatning tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishdagi muhim fiskal instrumenti sifatida baholanadi.

Xususan, Jahon savdo tashkiloti va Jahon bojxona tashkiloti standartlari va tavsiyalarida bojxona to'lovlarini samarali undirish, bojxona qiymatini aniqlash shaffofligini ta'minlash va bojxona auditi mexanizmlarini rivojlantirish bojxona qarzdorligini kamaytirishning asosiy omillari sifatida ko'rsatilgan.

R.Vulf, P.De Vulf, L.Shteyn kabi xorijiy iqtisodchilar tadqiqotlarida bojxona to'lovlaridan qochish holatlari yuqori stavkalar, murakkab tartib-taomillar va imtiyozlar tizimidagi noaniqliklar bilan bevosita bog'liqligi asoslab berilgan.

MDH davlatlari va rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasiga bag'ishlangan tadqiqotlarda (A. Kireyev, V. Tanzi, J. Keen) bojxona qiymatini pasaytirib ko'rsatish va noto'g'ri deklaratsiyalash fiskal yo'qotishlarning asosiy manbai sifatida qayd etiladi. Ularning fikricha, bojxona to'lovlaridan qarzдорlikning ortishi bojxona nazorati sifatining pasayishi emas, balki bojxona auditi tizimlarining samarali tashkil etilishi bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin.

O'zbekistonlik olimlar ham ilmiy ishlarida bojxona xizmatining fiskal faoliyatini takomillashtirish, xavfni boshqarish tizimini rivojlantirish hamda raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali bojxona to'lovlari yig'iluvchanligini oshirish masalalari keng yoritilgan<sup>1</sup>. Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarda bojxona to'lovlaridan qarzдорlikning kelib chiqish sabablarini statistik tahlil asosida chuqur o'rganish va ularning oldini olish mexanizmlarini kompleks baholash yetarli darajada yoritilmagan.

Mazkur maqola aynan ushbu jihatlarga qaratilgan bo'lib, unda bojxona to'lovlaridan qarzдорlikning shakllanish omillari zamonaviy statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilinadi hamda ilg'or xorijiy tajriba bilan solishtiriladi.

#### **Tadqiqot metodlari.**

Mazkur tadqiqot jarayonida iqtisodiy tahlilning umumilmiy va maxsus usullaridan keng foydalanildi. Xususan, bojxona to'lovlaridan qarzдорlikning kelib chiqish sabablarini aniqlashda tizimli yondashuv, mantiqiy tahlil va induksiya-deduksiya usullari qo'llanildi.

Ilg'or xorijiy tajribani o'rganishda qiyosiy-huquqiy tahlil usulidan foydalanilib, Turkiya Respublikasining bojxona to'lovlari va jarima mexanizmlari O'zbekiston amaliyoti bilan solishtirildi. Tadqiqot natijalari asosida umumlashtirish va ekspert baholash usullari orqali ilmiy-amaliy xulosalar va takliflar ishlab chiqildi.

#### **Tahlil va natijalar**

Tadqiqotlarimiz natijalarining ko'rsatishicha, bugungi kunda tizimda bojxona tartib-taomillari soddalashtirilib, amaldagi tartib-qoidalar yengillashtirilmoqda. Bojxona to'lovlaridan turli imtiyozlar berilib, soha yo'nalishida qo'shimcha imkoniyatlar yaratilmoqda. Jumladan, bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq holda yuzaga keladigan barcha bartaraf yetib bo'lmaydigan ziddiyatlar va noaniqliklar tadbirkorlik subyektlarining foydasiga talqin etilishi hamda bojxona to'lovlarini qo'shib hisoblash esa tovarlar chiqishiga ruxsat berilgan paytdan e'tiboran uch yil mobaynida amalga oshirilish mumkinligi belgilangan.

Tadbirkorlik subyektlari tomonidan e'tiroz qilinadigan qo'shimcha hisoblangan bojxona to'lovlarini xo'jalik sudi qarori asosida undirilishi bilan bog'liq tartibning joriy qilinganligi respublikaga import tovarlari olib kelish bilan shug'ullanuvchi TIF qatnashchilari huquqlari kafolatlarini ta'minlashdagi navbatdagi qadam bo'ldi. Shuningdek, tovarlar erkin muomalaga chiqarish bojxona rejimiga joylashtirilgandan so'ng, ularni uch yil mobaynida bojxona auditi orqali qayta bojxona nazoratidan o'tkazish mumkin. Qayta bojxona nazoratidan o'tkazish

<sup>1</sup> Pardayev, T. N., & Farkhodov, F. F. (2024). Божхона тўловларини ҳисоблаш, ундириш ва давлат бюджетига ўтказишнинг айрим масалалари. Economics and Innovative Technologies, 12(4), 115-123.

САРМАНОВ, О. А., & ФАРХОДОВ, Ф. Ф. Божхона йиғимларини ҳисоблаш ва ундиришни такомиллаштириш  
Тулкин Насирович ПАРДАЕВ.

jarayonida bojxona to'lovlari qo'shimcha hisoblanishi oqibatida va to'lash muddati o'tganda bojxona to'lovlari qarzidorlik kelib chiqadi.

Tadbirkorlik subyektlari bojxona organining qaroridan norozi bo'lsa, ya'ni bu haqida bojxona organini xabardor qilsa, qo'shimcha hisoblangan bojxona to'lovlari undirish, undirilmay qolingan bojxona to'lovlari undiruvga qaratish yuzasidan iqtisodiy sudga da'vo arizasi kiritish orqali amalga oshiriladi. Bu tartibning joriy qilinishi o'z navbatida bojxona organlari mas'uliyatini ikki hissa oshiradi. Ya'ni rasmiylashtiruv vaqtida bojxona xodimi bojxona to'lovlari to'liq undirib olinishini ta'minlashi, tovarlar erkin muomalaga chiqarilgandan keyin o'tkaziladigan tekshiruvlarda bojxona to'lovlari qo'shimcha hisoblashga hech qanday asos qoldirmasligi lozim bo'ladi. Bojxona to'lovlari qarzidorlikni o'z vaqtida undirish Davlat budjeti daromadlar qismining shakllanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi, albatta.

Bojxona to'lovlari to'lash bo'yicha qarzidorlik bojxona amaliyotida quyidagi hollarda yuzaga kelishi mumkin:

a) quvur transportida yoki elektr uzatish liniyalari orqali olib o'tiladigan tovarlar uchun bojxona yuk deklaratsiyasi berilgan kundan kechikkanda;

b) shartli chiqarib yuborilgan tovarlardan bojxona to'lovlari to'lash bo'yicha imtiyozlar berilishidan ko'zlanganidan boshqa maqsadlarda foydalanilgan taqdirda;

d) tovarlardan foydalanish va ularni tasarruf etish bo'yicha cheklovlarga rioya etilmagan birinchi kundan so'ng;

e) bojxona hududiga vaqtincha olib kirilgan tovarlar uchun-davriy bojxona to'lovlari to'lanmaganda;

f) bojxona to'lovlari ularni kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash muddati tugaganidan keyin to'lanmaganda;

g) tovarlar chiqarib yuborilganidan keyin bojxona nazoratini o'tkazish natijasida bojxona to'lovlari qo'shib hisoblanganda;

h) to'lovchining tashabbusi bilan bojxona to'lovlari qo'shib hisoblanganda;

i) tovarning bojxona qiymatiga va (yoki) bojxona to'lovlari tuzatishlar kiritilganda.

Tahlillarimiz natijalari bojxona amaliyotida yildan-yilga qo'shimcha hisoblangan bojxona to'lovlari miqdori oshib borayotganligini ko'rsatmoqda. Statistik ma'lumotlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 2019-yilda bojxona organlari tomonidan hisoblangan qo'shimcha bojxona to'lovlari 82,9 mlrd. so'mni, 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich 649,4 mlrd. so'mni tashkil qilgan. Bundan ko'rinadiki 2024-yilda 2019-yilga nisbatan 8 barobarga oshgan (1-jadval).

### 1-jadval.

**O'zbekiston Respublikasi bojxona organlari tomonidan 2019-2024-yillarda Davlat budjetiga o'tkazilgan bojxona to'lovlari tarkibida qo'shimcha hisoblangan bojxona to'lovlari ulushi<sup>2</sup>.**

№	Ko'rsatkichlar	2019	2020	2021	2022	2023	2024
1	Davlat budjetiga o'tkazilgan bojxona to'lovlari, trln.so'm	17,1	24,7	33,2	46,0	46,0	63,1
2	Qo'shimcha hisoblangan bojxona to'lovlari, mlrd. so'm	82,9	169,7	159,9	220,9	203,9	649,4

<sup>2</sup> Mualliflar tomonidan hisob-kitob qilingan.

3	Davlat budjetiga o'tkazilgan bojxona to'lovlari tarkibida qo'shimcha hisoblangan bojxona to'lovlarning ulushi, foizda	0,4	0,6	0,5	0,5	0,4	1,0
---	---	-----	-----	-----	-----	-----	-----

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2022–2023-yillarda bojxona tushumlari hajmi barqarorlashgan bo'lsa-da, qo'shimcha hisoblangan bojxona to'lovlarning mutlaq hajmi yuqori darajada saqlanib qolgan. Bu holat fiskal tushumlarning oshishi bilan bir qatorda tovarlar chiqarib yuborilgandan keyingi nazorat samaradorligi kuchayganligini ko'rsatadi. Oxirgi 5 yilda bojxona organlari amaliyotida bojxona to'lovlari qo'shimcha hisoblangan holatlar va ularni keltirib chiqargan omillar tahlil qilinganida, boj va soliqlar stavkalari yuqori bo'lsa, ayrim tadbirkorlik subyektlari tomonidan tovarlarni past stavkali tovarlar nomi bilan noto'g'ri deklaratsiyalash yoki tovarlarning bojxona qiymatini pasaytirib ko'rsatish orqali soliqlardan bo'yin tovlashga moyillik ortishi kuzatilgan.

Tovarlarini erkin muomalaga chiqarilgandan keyin bojxona to'lovlardan qarzdorlikni kelib chiqish yo'nalishlarining 2019-2024 yillar kesimidagi tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, tovarlarni bojxona qiymatini noto'g'ri belgilashda qo'shimcha hisoblangan qarzdorlik 14,2% ga, preferensiyalarni noto'g'ri berish 10,0% ga, boshqa holatlar 18,9% ko'paygan va aksincha imtiyozlarni noto'g'ri qo'llash 26,6% ga, TIF TN kod raqamini noto'g'ri aniqlash yo'nalishida

## 2-jadval

**Bojxona organlarida 2019-2023-yillarda qo'shimcha hisoblangan bojxona to'lovlari kelib chiqish sabablari tarkibi<sup>3</sup> (%da)**

T/r	Kelib chiqish yo'nalishlari	Yillar					
		2019	2020	2021	2022	2023	2024
1.	Imtiyozlar noto'g'ri qo'llanilishi	56,7	63,4	25,0	44,1	40,6 0	30,1
2.	Bojxona qiymati noto'g'ri belgilanishi	11,7	16,4	45,5	37,4	33,7 2	25,9
3	Preferensiyalarni noto'g'ri berish	5,4	7,6	8,0	4,4	9,98	15,4
4.	TIF TN kodi noto'g'ri belgilanishi	20,2	5,2	15,5	6,6	4,85	3,4
5.	Boshqa holatlar	6,3	7,4	6,0	7,5	10,8 5	25,2
<b>Jami</b>		<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100</b>	<b>100</b>

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, imtiyozlarni noto'g'ri qo'llash ulushining pasayishi ushbu yo'nalishda normativ-huquqiy aniqlikning oshgani va imtiyozlarni nazorat qilish mexanizmi takomillashgani bilan izohlanadi. Aksincha, bojxona qiymatini noto'g'ri belgilash ulushining yuqori bo'lib qolishi bojxona to'lovlardan qochish bilan bo'lgan iqtisodiy manfaat bilan bog'liq.

Tadbirkorlik subyektlari tomonidan imtiyozlardan maqsadsiz foydalanish holatlarining ortishi bilan bog'liq holatlar tahlil qilinganida, bu yo'nalishda ayrim mutasaddi idoralarda ish

<sup>3</sup>Muallif tomonidan hisob-kitob qilingan.

bugungi kun talablari asosida tashkil etilmaganligi ko'zga tashlanmoqda.

Korxonalar imtiyozlardan foydalanish uchun belgilangan mezonlarga mos kelmay qolish faktlari aniqlanganda, davlat soliq xizmati organlari 10 ish kuni ishida aniqlangan faktlar to'g'risida o'rnatilgan tartibda avval to'lanmagan bojxona to'lovlarini undirish choralarini ko'rish uchun davlat bojxona xizmati organlarini xabardor qiladi.

Ammo, bizning fikrimizcha, bugungi kunga qadar soliq organlari tomonidan bunday xabarlar deyarli kelib tushmaganligining o'zi ushbu tartibni qayta ko'rib chiqishni taqozo yetadi. Buning uchun hududiy bojxona va soliq organlari o'zaro hamkorlikda tadbirkorlik subyektlariga berilgan imtiyozlardan maqsadli foydalanilishini nazorat qilish mexanizmining sodda va samarali usullarini joriy etish lozim.

Iqtisodiyotni, jumladan, tashqi savdoni soliqlar bilan tartibga solish, ularning fiskal funksiyalari bo'yicha dunyo olimlarining bir qancha ilmiy qarashlari mavjud, jumladan, mashhur xitoy faylasufi Sun Szining hikmatli bir gari bor: "Soliqlarni haddan ziyod kuchaytirish turli talon-tarojlikni keltirib chiqaradi, dushmanlarning boyishiga xizmat qiladi, oqibatda, davlat inqirozga ushraydi"<sup>4</sup>.

Bojxona to'lovlarini to'lashdan qochish niyatida TIF subyektlari tomonidan bojxona to'lovlarini kam to'lashi oqibatida turli xil bojxona qonunbuzilish holatlari kelib chiqadi. O'zbekiston Respublikasi bojxona organlari tomonidan 2018-2023- yillar davomida aniqlangan bojxona qonunbuzilish holatlari tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, yuqoridagi yillarda aniqlangan bojxona qonunbuzilish holatlari 71,1% ga, yoki 9132 taga oshgan. Olib qo'yilgan tovar moddiy boyliklarning qiymati yesa, 968,5 mlrd. so'mga yetib borgan. 2018-2023-yillar davomida qo'shimcha hisoblangan bojxona to'lovlari bilan bog'liq ishlar soni 703 taga oshgan. Uning miqdori 28,3 mlrd. so'mga ko'paygan.

Turkiya amaliyotida jarima miqdori yuqoriligi sababli tovarlarning bojxona qiymati bilan bog'liq muammolar ko'p kuzatilmaydi.

Turkiya Respublikasining "Bojxona tartibotlari to'g'risida"gi Qonuni 234-moddasiga asosan quyidagi hollarda soliqqa tortiladigan tovarlar uchun mavjud bojlarga qo'shimcha ravishda, ushbu bojlarning 3 barobari miqdorida jarima undiriladi, agar:

a) tarif rejimiga ta'sir qiluvshi tovarlarning tabiati va xususiyatlarida yoki tovarlarning miqdori va vazni kabi o'lchovlarida nomuvofiqlik mavjud bo'lganda;

b) deklaratsiya asosida hisoblangan yig'imlar bilan audit natijalari bo'yicha hisoblangan yig'imlar o'rtasidagi farq 5% dan ortiq bo'lganda;

d) tekshirishlar natijasida advalor stavkada boj to'lanadigan tovarlarning deklaratsiya qilingan qiymati ma'lum qiymatga nisbatan yetarli emasligi aniqlangan taqdirda.

Tovarning bojxona qiymati pasaytirilgan deb topilgan har qanday holatda bojxona xodimi tomonidan post boshlig'iga va o'z navbatida, post boshlig'i Bojxona departamentiga bildirishnoma kiritadi. Mas'ul tarkibiy tuzilma xodimi ushbu qiymatni o'rganib chiqib, past deb topgan taqdirda, amaldagi boj to'lovlariga qo'shimcha ravishda 3 barobar miqdorida jarima summasini qo'shib undirish choralarini ko'radi. Shu bilan birga, garchi kafolati mavjud bo'lsa ham bojxona tartibotlaridan oldin yoxud tugaganidan so'ng tovarlar saqlashga ruxsat berilgan

<sup>4</sup> «Bilimli avlod – buyuk kelajakning, tadbirkor xalq – farovon hayotning, do'stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir». Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. Xalq so'zi gazetasi №253 (7211) 2018 yil 8 dekabr.

joyda ularning miqdori qisman yoki to'liq kamaysa, boj to'lovlariga qo'shimcha ravishda 3 barobar miqdorida jarima hisoblanadi.

Bundan tashqari Turkiyada xorijiy yuk transport vositalarining Turkiya hududiga kirishi talab etiladigan ruxsatnomasi ("dozvol") mavjud bo'lmagan taqdirda, tashuvchi 3 ming yevro to'lab, mamlakat hududiga kirish imkoniyatiga ega.

### **Xulosa va takliflar**

Bojxona to'lovlaridan qarzdorlikning kelib chiqish oldini olish, shuningdek bojxona organlari fiskal faoliyati yo'nalishida qonunbuzilish holatlarini oldini olish, korrupsiya holatlarini yanada kamaytirish maqsadida quyidagilar takliflar beriladi:

- Bojxona to'lovlarini hisoblash, undirish va ulardan berilayotgan imtiyozlarni qo'llash bo'yicha sun'iy intellektdan foydalanishni yanada kengaytirish taklif etiladi. Bunda, bojxona organlari fiskal faoliyati tizimiga sun'iy intellektni bosqichma-bosqich va uning yo'nalishlari bo'yicha joriy etish, ya'ni birinchi navbatda tovarlar kodlarini sun'iy intellekt asosida tekshirish, ikkinchi navbatda tovarlarning bojxona qiymatini aniqlashda sun'iy intellektdan foydalanish, uchinchi navbatda tovarlarni kelib chiqish mamlakatini sun'iy intellekt asosida tekshirish, to'rtinchi navbatda bojxona to'lovlaridan imtiyoz berishda sun'iy intellektdan foydalanish taklif etiladi, bu esa bojxona rasmiylashtiruvini tezlashtirib, unga ketadigan sarf - xarajatni qisqartirib, vaqt sarfini kamaytiradi.

- Tovarlarini bojxona qiymatini, miqdorini aniqlash, tovarlarni kelib chiqish mamlakatini aniqlashni takomillashtirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasiga import qilingan tovarlar tarkibida yuqori ulushga ega davlatlar: Xitoy va Koreya Respublikasi davlatlaridan statistik ma'lumotlarni almashish tizimini qayta yo'lga qo'yish taklif etiladi. Xitoydan import qilingan tovarlar 31,3 foizni va Koreya Respublikasidan import qilingan tovarlar 4,5 foizni tashkil etgan (2025-yil 6 oyida). Bu esa yuqoridagi davlatlardan kelayotgan tovarlar importi ko'rsatkichlarini haqqoniyligini yanada oshiradi.

- Turkiya davlati tajribasidan kelib chiqib, bojxona to'lovlari yo'nalishi bo'yicha bojxona qoidabuzarliklariga jarima miqdorini ko'paytirish taklif etiladi.

- Bojxona to'lovlaridan imtiyoz berish tartibini bosqichma-bosqich bekor qilish, barcha tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilariga bir xil imkoniyatni taqdim etuvchi tarif kvotasini amaliyotga kiritish tavsiya etiladi.

Xulosa qilib aytganda, bojxona to'lovlaridan qarzdorlikning kelib chiqishi fiskal barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bojxona to'lovlarini hisoblash, undirish va ulardan berilayotgan imtiyozlar yuzasidan me'yoriy hujjatlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, xavfni boshqarish tizimini takomillashtirish va sun'iy intellekt asosida ishlovchi nazorat mexanizmlarini joriy etish bojxona to'lovlarini yig'iluvchanligini yanada oshirib, bojxona to'lovlaridan qarzdorlikning kelib chiqish holatlarini kamaytiradi, istiqbolda mamlakat fiskal barqarorligini ta'minlashga katta hissa qo'shadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

- 1.Bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish va uyg'unlashtirish to'g'risidagi xalqaro KIOTO konvensiyasi. – Kioto, 1973-y.
- 2.World Trade Organization. Customs Valuation Agreement. Geneva.
- 3.World Customs Organization. Customs Valuation Compendium. Brussels, 2022.
- 4.Tanzi V., Zee H. Tax Policy for Emerging Markets. IMF Working Paper, 2000.
- 5.Keen M., Ligthart J. Information Sharing and International Taxation. Economic Policy, 2006.

6.Kireyev A. Customs Administration Reform and Revenue Mobilization. IMF, 2014.

7.Pardaev, T. N., & Farkhodov, F. F. (2024). Божхона тўловларини ҳисоблаш, ундириш ва давлат бюджетига ўтказишнинг айрим масалалари. *Economics and Innovative Technologies*, 12(4), 115-123.

8.Сарманов, О. А., & Фарходов, Ф. Ф. Божхона йиғимларини ҳисоблаш ва ундиришни такомиллаштириш Тулкин Насирович Пардаев

